

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY
KAMCHILIKLARI HAQIDA TUSHUNCHA VA KELIB
CHIQISH SABABLARI**

To‘xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi

Andijon davlat universiteti Pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lism fakulteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarning nutqiy xususiyatlari, nutq kamciliklari, ularning turlari, nutqiy kamchiliklarning buzilish sabablari shuningdek ularni oldini olish bo'yicha tashkil etilgan korreksion – tarbiyaviy ishlar mazmuni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq, nuqtiy kamchilik, nutq nuqsoni, nutqiy xususiyatlar, muloqot.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lism islohalari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir"[1] - deb alohida ta'kidlaganlar.

Maktabgacha ta'lism bolalarni har tomonlama , ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomonidan tarbiyalashdek maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida og'zaki nutqini o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar, tabiat va jamiyat qonunyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida , shuningdek nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo boladagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, xayol, tafakkur va h.k.) shunchaki bola organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilan paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashdi.[2]

Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, nutq - insonning kommunikativ faoliyati turlaridan biri, til jamoasining boshqa a’zolari bilan muloqot qilish uchun til vositalaridan foydalanish. Nutq deganda nutq jarayoni (nutq faoliyati) ham, uning natijasi ham (xotira yoki yozish orqali mustahkamlangan nutq mahsulotlari) tushuniladi.

Muloqot vositasi sifatida nutq tufayli, shaxsning shaxsiy ongi shaxsiy tajriba bilan cheklanmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan umumlashtiriladi va kuzatish va boshqa og‘zaki bo‘lmagan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilish jarayonlaridan ko‘ra ko‘proq darajada umumlashtiriladi.

Bolaning nutqi - kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muhiti va ta’lim – tarbiyaga bog‘liq jarayon hisoblandi.

Nutq tug‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Bola moddiy dunyodagi narsa va hodisalarmi ongida aks ettirib, bularning in’ikosi so‘z shaklida ifolaydi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi.[3] Inson o‘zi ko‘rgan ta’sirlangan buyum yoki hodisalarmi so‘z yordami nomlab, ularning mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida aniqlash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday hodisani miyada aks etishi hamda ongda mustahkamlanishida – nutq yetakchi ahamiyatga egadir. Shuning bilan birga bolalardagi fikrlash qobiliyatini ham – nutq negizida paydo bo‘ladi.

Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o‘z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo‘ladi.

Nutq kamchiligi - logopediya fanida muayyan tilning me’yorlaridan chetga chiqish deb ta’riflanadi.

Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Nutq kamchiligi o‘z-o‘zidan barham topmaydi, balki vaqt o‘tgan sari yanada mustahkamlanib, zo‘rayib boradi.

2. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo‘lishi ularning yoshiga mos kelmaydi.

3. Nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo‘ladilar.

4. Og‘ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarda nutq kamchiliklarini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi.

Nutqiy kamchiliklar turli sabablarini ko‘rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida Nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovskiy). [4]

Nutq kamchiliklari sababi deganda- Organizmga tashqi va ichki zararli omillar ta’sir etishi yoki ularning o‘zaro aloqasi tushunish mumkin, qaysiki bu, nutq buzilishi xususiyatlarini aniqlaydi.

Bolalardagi nutqiy kamchiliklarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;

2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;

3. Tug‘ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;

4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).

5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo‘ladigan bosh miya jarohatlari.

6. Nasliy faktorlar.

7. Sosial-maishiy sharoitning yomonligi. Bu xolat mikrososial pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek S.M.Dobrogayev nutq buzishlarini quyidagicha tasniflagan

1. Oliy nerv faoliyat kasalliklari.

2. Anatomik nutq apparatining patalogik o‘zgarishlari.

3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmasligi.

4. Organizmning umumiy nevropatik holati.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan sabablar, ayrim hollarda ularning birgalikda qo‘silib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Hamma nutq kamchiliklarning kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Organik xarakterdagи nutq buzilishlari.

2. Funksional xarakterdagи nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o‘z navbatida ma’lum joyning zararlanishiga ko‘ra markaziy va periferik xarakterda bo‘ladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasini u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulyasion apparatning noto‘g‘ri to‘zilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulyasion organlar inervasiyäsining buzilishidan kelib chiqadi.

Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar — bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a’zolar tuzilishida hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning mактабга kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agarda bolaning nutq nuqsoni maktabgacha yoshida aniqlansa, tibbiy va pedagogik tuzatish mактабда to‘laqonli ta’lim olish imkonini beradi.

Shuningdek, tish qatorlarining qing‘ir-qiyshiqligi va tanglayning noto‘g‘ri tuzilishi ham talaffuz qilishga halal beradi yoki past, yassi bo‘lganida ham bola tovushlarni aniq-tiniq talaffuz etolmasligi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kamchiliklarnig keng tarqalishi sabablaridan yana biri oilada bola nutqi noto‘g‘ri shakllanganligidir. Ko‘pchilik xonardonlarda kattalar kichik farzandlari bilan „bola tiliда“ so‘zlashadi. Erkalab-suyib, chuchuk tilda bola bilan gaplashish yoqimli, lekin bu odad kelajakda bolakay nutqiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari, ayrim bolalar nutqidagi kamchiliklarga, ularning tovushlarni buzib talaffuz qilishiga kattalar e’tibor bermaydilar, o‘z vaqtida to‘g‘irlanmagan bunday xatolar bolada ma’lum kamchiliklarni yuzaga keltirib, nutq nusoni rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi nutqiy kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlansa hamda uni bartaraf etish ishlari izchillik bilan olib borilsa, albatta ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

XULOSA

Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqiy kamchiliklar ko‘p hollarda bolalarga maxsus ta’sir etish yo‘llari orqali oldini olishga erishilmoqda. Hozirgi kunda bolalar poliknikasi mutaxassislari doimiy dinamik kuzatuv bilan bir qatorda 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni poliknikadan tashqari mактаб va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida profilaktika ko‘rikdan o‘tkazish turadilar. Bolalar muassasalaridagi tarbiyachi pedagog va shifokorlarning hamkorlikdagi ishlar bolalar sog‘lig‘idagi kamchiliklar bilan bir qatorda nutq

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi tug'mava orttirilgan kasalliklarni erta aniqlashga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarni bartaraf etish, ularni o'z sog'lom tengdoshlari qatori jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berish muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent. 1998
2. D.R.c Babayeva "NUTQ O'STIRISH NAZARIYASIVA METODIKASI" "Barkamol fayz media" nashriyoti 2018.
- 3.Q.Shodiyeva Nutq o'stirish uslubyoti "O'qituvchi " nashriyoti – matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2009
4. M.Ayupova "LOGOPEDIYA" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2019
- 5.V.S. Raxmanova "Defektologiya asoslari" Toshkent VORIS – NASHRIYOT 2012